



JAHON SAVDO TASHKILOTI VA O'ZBEKISTON: ISTIQBOL VA TAHLIL

Po'latov Xojiakbar

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0009-4031-3670

xojiakbar.polatov@mail.ru

Aanotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatimizning JSTga a'zolik maqomi, undan ko'zlangan maqsadlar bayon qilinadi. Tashkilotga a'zolikdan so'ng yurtimizga keladigan yutuq va kamchiliklar chuqur tahlil qilinadi. Muhokama chog'ida tadqiqotning O'zbekistonda mazkur sohada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ko'lamini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: jahon savdo tashkiloti, tariff va notarif to'siqlar, eksport salohiyati, import salohiyati, tashqi savdo aylanmasi, to'lov balansi.

ВСЕМИРНАЯ ТОРГОВАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ И УЗБЕКИСТАН: ПЕРСПЕКТИВА И АНАЛИЗ

Пулатов Хожиакбар

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье описывается статус членства нашей страны в ВТО и его цели. После вступления в организацию будут тщательно проанализированы достижения и недостатки нашей страны. В ходе обсуждения также будут рассмотрены рекомендации по совершенствованию объема мероприятий, реализуемых в этой области исследований в Узбекистане.

Ключевые слова: всемирная торговая организация, тарифные и нетарифные барьеры, экспортный потенциал, импортный потенциал, внешнеторговый оборот, платежный баланс.

WORLD TRADE ORGANIZATION AND UZBEKISTAN: PERSPECTIVES AND ANALYSIS

Pulatov Khojiakbar

Tashkent State University of Economics

Abstract. This article describes the status of our country's WTO membership and its goals. After joining the organization, the achievements and shortcomings of our country will be thoroughly analyzed. During the discussion, recommendations for improving the scope of measures implemented in this field of research in Uzbekistan will also be considered.

Keywords: World Trade Organization, tariff and notary barriers, export potential, import potential, foreign trade turnover, balance of payments.

Kirish.

Ma'lumki, jahon xo'jaligida davlatlar tashqi savdo aloqalarini qaytadan tashkil etish, ayrim tarmoq va sohalarda tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish zarurati borligi ham ayon bo'lmoqda. Natijada, keyingi yillarda global va mintaqaviy darajada dunyo tashqi savdosida yangi yo'nalishlarda siljishlar va transformatsiya ro'y bermoqda. Davlatlarning tashqi savdo strategiyalarida ham tub o'zgarishlar namoyon bo'lmoqda.

Jahon xo'jaligida davlatlar tashqi savdo aloqalarini qaytadan tashkil etish, ayrim tarmoq va sohalarda tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish zarurati borligi ham ayon bo'lmoqda. Natijada, keyingi yillarda global va mintaqaviy darajada dunyo tashqi savdosida yangi yo'nalishlarda siljishlar va transformatsiya ro'y bermoqda. Davlatlarning tashqi savdo strategiyalarida ham tub o'zgarishlar namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 4 fevral kuni qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat tovarlari sifatini oshirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. Shu yig'ilish jarayonida ham Jahon savdo tashkiloti standartlariga eksport tovarlarimizning javob bermasligi hamda import tovarlarning kirib kelish payti ularni tekshiruvdan o'tkazish qiyinchilik tug'dirayotgani haqida gapirildi. Oziq-ovqat mahsulotlarini sinash bo'yicha Jahon savdo tashkilotining talablariga mos 775 ta standart bo'lsa, mamlakatimizda ularning 100 tasi joriy qilingani, 100 dan ortiq laboratoriyadan atigi 10 tasi xalqaro darajada akkreditatsiyadan o'tgani tanqid qilindi. Bu korxonalarimiz mahsulotlarini eksport qilish imkoniyalarini qiyinlashtirishi haqida ham qayd etildi. Shu bilan birga ularga tegishli chora-tadbirlar ko'rilishi va yo'l xaritalari belgilab berilishi bo'yicha ko'rsatmalar berildi (Ismailova va Dadabayev, 2023). Yuqoridagi standartlarni joriy qilinishi ham biz uchun Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish bosqichlarimizni bir muncha yengillashtiradi.

Adabiyotlar sharhi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi fan-texnika taraqqiyoti ta'siri ostida ishlab chiqarish munosabatlarining keskin o'zgarishi klassik iqtisodiy maktabning tashqi savdo jarayonlariga oid tadqiqot yo'nalishlarini takomillashtirishga sabab bo'ldi. Xeksher (2006) va Olinning (2004) "ishlab chiqarish omillari" nazariyasida ushbu ustuvorlik to'liq aks etadi. Adam Smit va David Rikardolarning (1776) nazariyalaridan farqli o'laroq, bu ikki olim ishlab chiqarish omillari, ayniqsa kapitalning mamlakatlararo ko'chib yurishini ilmiy asoslab bergan. Adam Smit va David Rikardolarning nazariyalariga ko'ra ishlab chiqarish omillari xalqaro darajada migratsiyaga uchramaydi, ammo keying maktab vakillari esa ba'zan kapital va ishchi kuchi omili xalqaro harakatga kelishi mumkinligini izohlab o'tadi (Olin, 1933).

XIX asrning 30-40-yillarida Mill (2011) Angliyadan kapital eksportining jadal o'sib borayotganini kuzatadi. Ushbu hodisaning sabablarini u "Siyosiy iqtisod asoslari" (1848 y.) kitobida izohlab, ba'zan iqtisodiy taraqqiyot natijasida yuzaga kelgan ortiqcha mablag'larning mamlakatda passiv to'planib qolishi bu mablag'lardan foyda olish darajasi pasayish tendentsiyasi bilan bog'laydi.

Mill (2011), kapitalning rentabellikni pasaytirayotgan qismi eksport qilinishi zarur deb hisoblaydi. Maslan, kapital metropoliyadan eksport qilinib xom ashyo ishlab chiqarish uchun koloniyalarga yuboriladi. Bu metropoliyada mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytiradi va yuqorida ta'kidlangan kapital rentabelligining tushib ketishi tendentsiyasini susaytiradi. O'z navbatida, kaloniyalarda kapital importi mamlakatlarning ishlab chiqarish ixtisoslashuvini yaxshilaydi va tashqi savdoni kengaytirishga yordam beradi (Smit, 1776).

Mill (2011) birinchi bo'lib tayyor mahsulotlar ham, kapital ham xalqaro miqyosda mobil ekanligini isbotlab berdi.

Keyns (1926) – ingliz iqtisodchisi, keynschilik nazariyasi asoschisi kapital oqimlari va mamlakatning to'lov balansi holati o'rtasidagi munosabatlarini o'rganadi. Keynsning o'zi kapital harakati odatda turli mamlakatlarning to'ov balansi muvozanatining buzilishidan kelib

chiqadi, degan fikrni ilgari suradi. U mamlakatdan kapital eksporti tovarlar va xizmatlar eksporti importdan oshib ketganda amalga oshiriladi, deya ta'kidlaydi. Ushbu jarayon buzilgan taqdirda, davlat aralashuvi zarur, deb hisoblaydi.

Xarrod (1951) o'zining "Iqtisodiy dinamika" modelida kapitalga boy mamlakat iqtisodiy o'sish sur'ati qanchalik past bo'lsa, uni eksport qilish tendentsiyasi shunchalik kuchli bo'lishini ta'kidlaydi.

Neo-Keyneschilar nazariyasi bozor iqtisodiyoti sharoitida Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlarining rivojlanishiga yordam berish siyosati asoslaridan biriga aylandi. Darhaqiqat, ushbu nazariyaga ko'ra, kapitalni rivojlanayotgan mamlakatlarga eksport qilish eksport qiluvchi va import qiluvchi mamlakatlarda ishbilarmonlik faolligini kuchaytiradi. Biroq, ushbu eksportga ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda kuchli xavf va boshqa to'siqlar to'sqinlik qilayotganligi sababli, G'arb hukumatlari eksport qilinishi kerak bo'lgan kapitalni, davlatlar kafolati ostida rivojlanayotgan mamlakatlarga yuborishlari kerak, deb hisoblaganlar.

Buyuk depressiyadan beri global moliyaviy tartibga solish tizimi sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. Ammo bu o'zgarishlar yetarli bo'lmadi, aksincha ular xaddan tashqari aralashuvning yangi muammolarini yuzaga keltirdi. Buyuk depressiya bilan bog'liq iqtisodiy oqibatlarni o'sha davrning kuchli iqtisodchisi Keynsning (1926) bir qator asarlarida tadqiq etilib, xalqaro kapital harakati va o'zaro moliyaviy munisabatlari tatibga solindi.

O'zbekiston xalqaro iqtisodiy salohiyatini tizimli tartibda o'rganish va mazkur yo'nalishda strategik vazifalarni amalga oshirishga doir tadqiqot izlanishlari Vaxobov, Tadjibayeva, Xajibakievlar (2015) tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, tadqiqotchilar eksport faoliyatini rag'batlantirishda shartnomaviy munosabatlarning rolini oshirishga ustuvorlik berish zarurligini ta'kidlaydilar.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot metodologiyasi mahalliy va xorijiy mualliflarning takofulning turli jihatlariga bag'ishlangan konsepsiyalariga asoslanadi. Tadqiqotning uslubiy asosini strukturaviy-funksional va jahon iqtisodiyotida neoliberal yondashuv tashkil etadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Jahon savdo tashkiloti (JST) globalizatsiya va xalqaro integratsiyaning kuchayishi oqibatida, mamlakatlar o'rtasidagi savdo munosabatlarini tartibga solish, xalqaro savdoni oshirish va mamlakatlar o'rtasida savdo nizolari yuzaga kelsa, ularni bartaraf etish maqsadida tuzilgan. JSTning tashkil etilishi yarim asrdan ko'proq tarixga ega. Ikkinchi Jahon urishidan so'ng, mamlakatlar iqtisodiyotini jonlashtirish maqsadida, 1947-yilda 23 ta mamlakat tomonidan Jeneva shahrida Tariflar va savdo bo'yicha Bosh kelishuv (GATT) tuzilgan bo'lib, 1948-yilda amaliyotga tatbiq etilgan. GATTni rivojlantirish va mahsulotlar uchun o'zaro tariflarni pastlatish maqsadida Urugvay raundi (1986-1994) joriy etilgan. JST 1995-yil 1-yanvarda tuzilgan va shu yilning o'zida 125 ta mamlakat a'zo bo'lgan. Hozirgi kunda JSTga 164 ta mamlakat a'zo. Xalqaro savdoning 98-99 % ulushi Jahon savdo tashkilotiga a'zo mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Jahon savdo tashkiloti o'z faoliyatini quyidagi tamoyillar asosida olib boradi:

–“Eng maqbul davlat” rejimi — a'zo mamlakatlarning har biri boshqa a'zolarga nisbatan savdo sheriklari sifatida teng sharoitlarni qo'llaydi. Agar biror-bir mamlakat o'zga savdo sherigiga imkoniyat bersa, u holda xuddi shunday rejim JST ning boshqa a'zo mamlakatlariga ham qo'llanishi shart;


–kamsitishsiz savdo — mamlakat savdo sheriklari, xorijiy tovarlar va xizmatlar savdosi sohasida shaxslar o'rtasida diskriminatsiya o'tkazmasligi kerak;

–savdo to'siqlarini bartaraf etish — muzokaralar o'tkazish orqali mavjud savdo to'siqlarini asta-sekin bartaraf etish;

–bashorat etiladigan savdo - xorijiy investorlar, kompaniya va hukumatlar savdo to‘siqlari asossiz joriy etilmasligiga ishonch hosil qilishlari shart va bozorni erkinlashtirish majburiyatlari JST ga “bog‘lanadi”;

–raqobatbardoshlikni takomillashtirish - JST qoidalari eksportni subsidiyalash va demping kabi xalqaro savdodagi “adolatsiz” faoliyatlarga to‘sqinlik qiladi;

–rivojlanayotgan mamlakatlar uchun yetarli darajada qulay shart-sharoitlar yaratish — rivojlanayotgan mamlakatlarga o‘tish davri va maxsus rejimlarni taqdim etish ko‘zda tutiladi (Vahobov, 2015).



1-rasm. GATT/JST ning maqsadi va vazifalari

Xalqaro savdo turli davlatlarning subyektlari o‘rtasida yuz beruvchi savdo-iqtisodiy aloqalarni, mamlakatlararo savdo-sotiq va boshqa iqtisodiy aloqalarning tez sur‘atlar bilan kengayib borayotgan munosabatlarni aks ettiradi. Bu munosabatlar o‘z ichiga savdo-sotiq munosabatlarini: tovarlarni olish-sotish, shuningdek, ish yoki xizmatlarni bajarishga hamda realizatsiya qilishga (sotishga) qaratilgan har qanday faoliyat turini oladi. Xalqaro savdo huquqi savdo-sotiq munosabatlari sohasida turli davlatlarga tegishli subyektlar o‘rtasidagi aloqalarda umumiy qoidalarning joriy etilishi orqali, ushbu aloqalarni o‘zaro muvofiqlashtirishga va shu yo‘l bilan savdo aloqalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston milliy iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va jahon hamjamiyatidagi o‘rnini mustahkamlash bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunda tashqi aloqalar, ayniqsa tashqi savdo aloqalarining ahamiyati beqiyosdir. Shuning uchun hukumatimiz tomonidan mamlakat eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Mamlakatimiz o‘zining eksport salohiyatini yanada oshirishni Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishda ko‘rmoqda.

JST xalqaro savdo munosabatlari uchun qulay huquqiy tizimni taqdim eta oladigan cheksiz imkoniyatlar eshigi sanaladi. Qabul qilingan hujjatlar davlatlarning o‘z savdo siyosatlarini kelishilgan tartibda olib borishlarini talab qiladi. Bundan ko‘zlangan maqsad jahon savdosida mamlakatda mavjud bo‘lgan iqtisodiy tarmoqlarga ko‘mak berishdan iborat. JSTning asosiy funksiyalaridan bo‘lgan savdoni liberallashtirish, savdo bitimlari, xalq

farovonligi uni turmush tarzini yuksaltirishdan iborat. Shuningdek, ichki bozorni erkinlashtirishni ta'minlash. JST ga a'zo mamlakatlarda chet el korxonalarida ishlab chiqarilgan sifatli va arzon mahsulotlar ichki kichik raqobatbardosh bo'lmagan korxonalarining inqirozga uchrashiga sabab bo'ladi.

JSTga a'zo bo'lish uchun har bir davlat o'rtacha 8-10-15 yilni tashkil qiladi. O'zbekistonda 2017-yildan boshlab ijobiy siljishlar kuzatilmoqda. Ammo iqtisodiyot tarmoqlarining ustuvor yo'nalishlarida davlatning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 4-fevral kuni qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat tovarlari sifatini oshirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. Mazkur yig'ilish doirasida JST standartlariga eksport tovarlarimizning javob bermasligi hamda import tovarlarning kirib kelish payti ularni tekshiruvdan o'tkazish qiyinchilik tug'dirayotgani haqida gapirildi. Oziq-ovqat mahsulotlarini sinash bo'yicha Jahon savdo tashkilotining talablariga mos 775 ta standart bo'lsa, mamlakatimizda ularning 100 tasi joriy qilingani, 100 dan ortiq laboratoriyadan atigi 10 tasi xalqaro darajada akkreditatsiyadan o'tgani tanqid qilindi. Shuningdek, milliy mahsulotlarimizning eksporti imkoniyalarini qiyinlashtirishi haqida ham qayd etildi.

Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish, a'zo mamlakatlarga iqtisodiy manfaat keltiradi. Tashkilotga a'zo bo'lishning ijobiy jihatlari quyidagilar: iqtisodiy manfaat eng avvalo o'zaro mahsulot ayriboshlash yo'lidagi to'siqlarni olib tashlashga sharoit yaratadi; mamlakatdagi ijtimoiy va siyosiy vaziyatga iqtisodiy nizolar tinch yo'l bilan hal etilishi evaziga ijobiy ta'sir qiladi; aholi turmush darajasini yaxshilanishiga turtki beradi, insonlarga sifatli mahsulot iste'mol qilish imkonini yaratadi; liberal savdo mamlakat va alohida vatandoshlarning daromadlarini oshiradi; mehnat bandligi sohasida ijobiy ta'sir qiladi; savdo sohasidagi ortiqcha xarajatni kamaytiradi; iste'molchilar uchun tanlash imkoni berib, eksport qilinayotgan mahsulotlar hisobiga milliy mahsulotlar tannarxini tushirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, O'zbekistonning tashkilotga a'zo bo'lishi proteksionistik to'siqlar natijasidagi yuqori narxlarning tushishiga hamda mavjud resurslardan unumli foydalanishda, mamlakatda raqobat muhitining kuchayishida, korrupsiyaning pasayishida hamda import kontrabanda tovarlarining qonuniy yo'l bilan mamlakatga kirib kelishida ahamiyat kasb etadi.

Tashkilotga a'zolik yangi mahsulot va xizmatlar bo'yicha yangi standart, qoidalarni shakllantiradigan turli xalqaro tashkilot va bitimlarda ishtirok etishga yo'l ochadi. Yurtimizda dunyo mamlakatlariga eksport qilinadigan mahsulotlarning ishlab chiqarish sharoitini yanada yaxshilanishiga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yildagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PQ-60 son Farmoni bilan tasdiqlangan 97-maqсадda Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish masalasining kiritilganligidir.

Bunda Jahon savdo tashkilotiga a'zo davlatlar bilan muzokaralar o'tkazish; O'zbekistonlik mutaxassislarning Jahon savdo tashkiloti va ko'p tomonlama savdo tizimi sohasida salohiyatini oshirish; texnik jihatdan tartibga solish, sanitariya va fitosanitariya choralari va intellektual mulk himoyasi sohalarida milliy qonunchilikni Jahon savdo tashkiloti bitimlarining talablariga muvofiqlashtirish bo'yicha tegishli takliflar ishlab chiqish; O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishining metallurgiya, to'qimachilik, oziq-ovqat, avtomobil ishlab chiqarish sohalariga ta'sirini o'rganish; O'zbekiston Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishining milliy iqtisodiyotga ta'sirini o'rganish; Jahon savdo tashkiloti qoidalariga muvofiq bo'lgan ichki bozorni notarif choralari orqali himoya qilish tizimini rivojlantirish; Jahon savdo tashkiloti qoidalariga muvofiq bo'lgan eksportni qo'llab-quvvatlash va subsidiyalash choralari ishlab chiqish kabi choralarning davlatimiz uchun maqsad qilib olinishi Tashkilotga a'zolik ishlarining jadallashishiga olib kelib, ushbu sohaning o'rganilishini yanada chuqurlashtiradi (Marokash, 1994).

Bugun O'zbekiston iqtisodiyotining oldida turgan muhim masalalardan biri Jahon savdo tashkilotining teng huquqli a'zosi bo'lishdir. O'zbekistonda JSTga a'zo bo'lish uchun hozirgi

kunda amaliy vazifalar va turli chora tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshilmoqda. Bu mamlakatimizning xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishda ahamiyatli hisoblanadi. Hozirgi kunda jahondagi jahon tovar aylanmasining 98,0 foizi JSTga a'zo mamlakatlar ulushiga to'g'ri kelgan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasining 97,0 foizi JSTga a'zo mamlakatlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Mamlakatimizning JSTga a'zo bo'lishi tashqi iqtisodiy siyosatning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, kelajakda mamlakatimiz iqtisodiyotini istiqboli aynan shu jarayonga bog'liq.

O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi bo'yicha ishchi guruh 1998-yilda tashkil etilgan edi. Keyingi yillarda ushbu ishchi guruh faqat uch marta uchrashdi va 2000-yillarning o'rtalarida uning xalqaro ekspertlar bilan uchrashuvlari to'xtatilgan.

O'zbekiston Respublikasi JSTga qo'shilish uchun uning kamida 15 ta bitimlarida aks ettirilgan majburiyatlarni bajarishni o'z zimmasiga olishi talab qilinadi. Shu bilan birga, JST bitimlari keng qamrovli va murakkabdir, chunki ular keng doirada jahon savdosi masalalarini qamrab oluvchi yuridik hujjatlar hisoblanadi.

Bugungi kunda xalqaro savdo munosabatlari ularni tartibga solish konsepsiyaci nuqtai nazaridan ikki shaklda amalga oshiriladi. Bular xalqaro savdo munosabatlarini ommaviy huquqiy tartibga solish va xucuciy-huquqiy tartibga solish shakllaridir.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida xalqaro savdo faoliyatni ommaviy-huquqiy tartibga solish tashqi iqtisodiy faoliyatni muctahkamlashga va ichki bozorni muhofaza qilishga qaratilgan. Xalqaro savdo munosabatlari tuzilmaci o'z navbatida xalqaro savdo-huquqiy munosabatlar asoslarini tartibga soluvchi tamoyillar; xalqaro (hukumatlararo va nohukumat) tashkilotlar; xalqaro savdo sohasidagi tashkilotlar va organlarining hujjatlari; savdo portlarida, dengiz, temir yo'l, daryo va havo yo'llarida xalqaro-huquqiy rejim; savdo nizolarini halq etishning xalqaro-huquqiy vositalari, tashqi savdo faoliyatini davlat huquqiy tartibga solinishi kabi asosiy tayanch tarkibiy qismlar bilan bevosita bog'liq.

Shuning uchun ham xalqaro savdo munosabatlarini kompleks tarzda tizimlararo o'rganilishi lozim bo'lgan soha bo'lib, uning tartibga solish predmeti tabiatiga ko'ra turli-tuman va xilma-xil shakldagi xalqaro savdo munosabatlarida namoyon bo'ladi (Minnayev, 2006).

Xulosa va takliflar.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining hisob-kitoblariga ko'ra, O'zbekiston uchun JSTga a'zo bo'lsa, agar tariflar Rossiya darajasiga (5 foizgacha) tushirilsa importning o'sishi 5,8 mln. dollar miqdorida, Qozog'iston va Qirg'iziston darajasiga tushirilsa (0 foizgacha) importning o'sishi 6,7 mln. dollar miqdorida yuz beradi.

O'zbekistonda notarif to'siqlar darajasi va ularning import va ichki ishlab chiqarish hajmiga ta'sir ko'rsatadi. Davlat sektori farmatsevtika mahsulotlari asosiy import qiluvchisi hisoblanadi, lekin xaridlari tartibi hali beri murakkab. O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyatning barcha turlari litsenziyalashni taqozo etadi.

JST kelishuvlarida agarda boshqa davlatlar bilan kelishuv mavjud bo'lgan taqdirda xalqaro xatto chet el milliy standartlaridan ham foydalanish ta'kidlab o'tilgan. Bundan tashqari, qonunda import qilinayotgan tovarlar sog'liqni saqlash va xavfsizlik singari umumiy talablar bo'yicha O'zbekiston joriy qilgan texnik reglamentlarga mos kelishi ko'zda tutilgan. Bu esa O'zbekistonda standartlar ham majburiy ham boshqa elementlardan tashkil topganligini bildiradi va import qilinayotgan mahsulot boshqa elementlarga rioya qilishi shart emas. Shu bilan birga, O'zbekiston umumiy manfaatlarga tegishli bo'lgan masalalar JST tomonidan tan olingan ro'yhatga nisbatan ko'p bo'lib, o'zaro moslashuv va usullar birligi kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Shunday qilib kelishuvga muvofiq davlat tashkilotlari mavjud texnologiyaga mos kelishini ta'minlashga ma'suldirlar, vaholanki, boshqa mamlakatlarda ushbu majburiyat xususiy tarmoq va bozor kuchlariga yuklatilgan. Ma'muriy talablarning keng hajmini mavjudligi standartlarning 80% majburiy standartlar sifatida bo'lishining sababi hisoblanadi.

Adabiyotlar / Лумература/ Reference:

Harrod R. (1951). *The life of John Maynard Keynes*. - L.

Ismailova N.S., Dadabayev U.A. (2023). *O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari*. Monografiya. – T.: “Ilm-fan va innovatsiya”, 152 b.

Marrakesh Agreement (1994). *The Rules of Origin Agreement 1994*, Apr. 15, 1994, *Establishing the World Trade Organization, Annex 1A*, 1867 U.N.T.S. 187, 33 I.L.M. 1153 p-67.

Mill J. (2011). *Principles of Political Economy*. ISBN. 9788468628974. -726 p.

Smith A. (1776). *The wealth of nations*. W. Strahan and T. Cadell, London.

Vahabov A., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. (2015) *Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik* /A.V. Vaxabov, D.A. Tadjibayeva, Sh.X. Xajibakiyev. — Toshkent: Baktria press, -286-bet

Кейнс Ж. (1926). *Большая советская энциклопедия: в 66 т. (65 т. и 1 доп.) / гл. ред. О. Ю. Шмидт*. — М.: Советская энциклопедия, 1926—1947.

Минаев А. (2006). *Правовое регулирование внешнеторговых сделок юридических лиц*. Автореферат на соискание уч. степени канд. юрид. наук М, – С. 8-9.

Олин Б. (2004). *Межрегиональная и международная торговля*. М.: Дело, 416 с. (англ. *Interregional and International Trade*, 1933).

Хекшер Э. (2006). *Влияние внешней торговли на распределение дохода = The Effect of Foreign Trade on the Distribution of Income (1919) // Вехи экономической мысли. /Под ред. А.П.Куреева*. М.: ТЕИС, 154 с.